

O‘ZBEK, TURK VA UYG‘UR MILLIY KIIYIMLARIDA TARIX VA ESTETIK TAFAKKUR

Abdujamilova Marjona Baxromali qizi

Sharq filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish(turk tili) 2-bosqich talabasi, O‘zDJTU

Ilmiy maslaxatchi: Abduraximova Nigora Azizovna

O‘zDJTU ikkinchi chet tillari kafedrası, turk tili o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek, turk va uyg‘ur xalqlarining milliy liboslari, bu xalq liboslarining tarixi, shakllanish bosqichlari, ularda aks etgan qadriyatlar, tarix va estetik tafakkurning ifodasi, milliy liboslarda aks etgan o‘zbek, turk va uyg‘ur millatlarining o‘zligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy kiyim, o‘zbek, turk, uyg‘ur, tarixiy estetika, naqshlar, din, tafakkur.

Abstract. This article discusses the national costumes of the Uzbek, Turkic, and Uyghur peoples, the history of these folk costumes, the stages of their formation, the values reflected in them, the expression of history and aesthetic thinking, and the identity of the Uzbek, Turkic, and Uyghur nations reflected in national costumes.

Keywords: national clothing, Uzbek, Turkish, Uyghur, historical aesthetics, patterns, religion, thought

Milliy kiyim – har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy o‘zligi va yodgorligi va estetik qarashlarini belgilovchi, aks ettiruvchi noyob hodisadir. U nafaqat tashqi ko‘rinish, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, diniy e‘tiqodlari, ijtimoiy-iqtisodiy holati va estetik qarashlarini ham o‘zida mujassam etadi. O‘zbek, turk va uyg‘ur milliy kiyimlari esa ming yillik tarixga ega bo‘lgan, o‘ziga xoslik va badiiy go‘zallikni uyg‘unlashtirgan kiyim madaniyatining yorqin namunasidir. O‘zbek va turk, uyg‘ur xalqlarining milliy kiyimlari bu jihatdan bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlarga ega bo‘lib, ular orqali bu xalqlarning tarixiy-madaniy aloqalari, qadriyatlari va estetik tafakkuri namoyon bo‘ladi. Bu kiyimlar nafaqat kundalik ehtiyoj, balki xalqning dunyoqarashi, urf-odatları, diniy e‘tiqodi va zamonaviy didining in‘ikosidir.

O‘zbek xalqining tarixdagi kiyim-kechaklari bilan bog‘liq ma‘lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o‘rta asrlardagi kitob miniatyuralari beradi. O‘zbek milliy kiyimlari o‘zining qadimiy ildizlarini Zardushtiylik, Islom va turli tarixiy bosqichlarda shakllangan davlatlardan olgan. Masalan, atlas va adras matolardan tikilgan ko‘ylaklar qadimda ham ayollar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu matolar o‘zining jilosi, nozikligi va betakror naqshlari bilan ajralib turgan. Erkaklar esa chopon, do‘ppi va belbog‘ bilan o‘ziga xos tashqi ko‘rinish yaratgan.

Xalqning kiyim-kechaklaridagi o'zgarishlar, asosan, XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo'ladi va undagi transformasiya, asosan, shaharlarda ochiq ko'zga tashlanadi. XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga Rusiyadan ip gazlama va boshqa matolarning keltirilishi sababli XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi orasida asosan fabrikada tayyorlangan ip gazlamalar: chit, bo'z, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo'lgan. Turk kiyimlari asosan ko'chmanchi turk qabilalarining an'analari borib taqaladi. Biroq, Usmonli imperiyasi davrida bu kiyimlar saroy madaniyati, islomiy etikaga va davlat boshqaruv tizimiga moslashgan. Ayollar entarisi (uzun ko'ylak), salvar (keng shim), yelpaze (sharf) kabi kiyimlar kiygan. Erkaklar esa kaftan, turban, kuşak (belbog') va kamzol kiygan.

Turk milliy kiyimlari Usmonli davlati davrida yanada shakllangan bo'lib, bu kiyimlarda sharqona nafislik va saltanat ohangi mujassam. Erkaklar kiyimida kaftan va turban, ayollar kiyimida esa entari, salvar va hil'atlar ko'p ishlatilgan. Har bir kiyim shakli va detali turk xalqi tarixiy taraqqiyotining belgisidir.

Uyg'ur kiyimlari tarixiy jihatdan Qochoq, Yarkand, Urumchi madaniyatlari bilan bog'liq. Islomgacha bo'lgan davrda buddhistik madaniyat ta'sirida bo'lgan, lekin islomlashuvdan so'ng hijoblashgan, ammo rang-barangligini yo'qotmagan. Ayollar liboslarida keng yubka, qora qoshli do'ppi, erkaklarda esa to'q rangli yelak, shalvar va bosh kiyimlar muhim o'rin egallaydi. Uyg'ur erkaklari va ayollari tomonidan kiyiladigan to'rtburchak shaklidagi bosh kiyim mavjud bo'lib, ularning madaniy merosining ajralmas qismidir.

Estetik tafakkur, ya'ni go'zallik haqidagi qarashlar milliy kiyimlarda naqshlar, ranglar va bezaklar orqali namoyon bo'ladi. O'zbek kiyimlarida yorqin ranglar, gul naqshlari va tabiiy hodisalarga o'xshash ornamentlar ko'p ishlatiladi. Bu esa xalqning tabiat bilan uyg'un yashash, hayotga bo'lgan mehrini anglatadi.

Turk kiyimlarida esa ko'proq nafislik, simmetriya va sarhadlardagi aniqlik hukm suradi. Qizil, moviy, oq ranglar ko'p ishlatiladi. Bu esa ularning davlat ramzlari va Islomiy san'atga yaqinligini bildiradi.

Uyg'ur kiyimlarida esa yulduzli naqsh, g'unchalar, dumaloq shakl hayot aylanishi, ayol go'zalligi, risq belgilarini ifodalab keladi.

O'zbek kiyimlarida yorqin, ko'zga tashlanadigan ranglar ustuvor: qizil, ko'k, sariq, yashil. Bu ranglar tabiatga yaqinlikni, quvonch va hayot shodligining ramzi hisoblanadi. Ayniqsa, atlas va adras matolaridagi ranglarning uyg'unligi o'zbek xalqining badiiy didini ifodalaydi.

Turk kiyimlarida esa ko'proq chuqur, sokin ranglar ishlatiladi: bordo, havorang, oq va qora. Bu ranglar ko'proq rasmiylik, sadoqat va estetik uyg'unlik timsoli sifatida qaraladi.

Uyg'ur xalqining milliy kiyimlarida ham o'zbek va turk xalqlarining liboslarida bo'lganidek qizil, ko'k, yashil va oq kabi jozibador ranglar aks etadi. Ushbu ranglar orqali shunday ma'nolar ifodalanadi: qizil rang baxt, to'y va quvonch, ko'k rang osmon, ruhiy tozalik ilohiylik belgilarini ifodalasa, yashil

rangi Islom, tabiat va umid, oq rang poklik, tinchlik va ma'sumlikni o'zida mujassam etadi.

O'zbek liboslarida geometrik va guldor naqshlar ustun. Masalan, "chirog", "bodom", "qushko'z" kabi naqshlar qadimiy an'analar bilan bog'liq. Ayollar ko'ylaklarida ko'proq gullar, barglar va tabiiy unsurlarni eslatuvchi naqshlar ishlatiladi.

Turk kiyimlarida esa islomiy san'atga xos arabesk uslubi – murakkab geometrik naqshlar va kaligrafik yozuvlar ishlatiladi. Usmonli davrida kiyimlardagi naqshlar hukmdorning mavqei va tabaqasini bildirgan.

Rang-barang atlas matosidan tikilgan ko'ylaklar uyg'ur ayollari orasida mashhur bo'lib, ular ko'pincha og'ir zargarlik buyumlari bilan bezatiladi.

Bu xalqlar liboslarini ruhiy va diniy ifoda jihatidan shunday ta'riflash mumkin. Ya'ni, o'zbek milliy liboslari ko'pincha duo bilan tikiladi. Masalan, bolalar kiyimlariga duo kashta tikiladi, bu ularni yovuz kuchlardan himoya qilishga xizmat qiladi deya qaraladi.

Turk xalq liboslarining ma'lum qismida, ya'ni saroy kiyimlarida Qur'on oyatlari naqsh bo'lib tushirilgan, bu kiyimlarni kiygan shaxsning ilohiy himoyada ekanligini bildiradi.

Uyg'ur xalqi esa kiyimlarini ibodat oldida o'zgartiradi. Masalan, ro'za davrida eng pok kiyim kiyiladi, bu ruhiy soflikni saqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganimizda, o'zbek va turk, uyg'ur milliy kiyimlari bu xalqlar madaniy tarixining, estetik tafakkurining va diniy-ijtimoiy qadriyatlarining mujassam timsolidir. Har bir tugma, har bir naqsh, har bir rang – bu xalq ruhiyatining, san'atga munosabatining jonli guvohidir. Bu kiyimlar orqali ushbu uch xalq o'z o'zligini, o'z go'zalligini asrab kelmoqda. Zero, Abdulla Qodiriy bobomiz aytganidek: "Milliy kiyim – bu o'tmishni hozirda saqlab qolish, madaniyatni esa ko'ngilda tutish demakdir."

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arik, M. (1993). Traditional Turkish Costumes. Ankara: Turkish Ministry of Culture Publications.
2. Erbek, G. (2005). The Clothing Culture of the Turks and the Entari. Ankara: Hacettepe University Press.
3. Gulomova, R. (2024). Embracing cultural classes: unveiling the significance of culture in EFL education. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 665-671.
4. Habibulla, R. (2018). Atlas – uyg'ur xalqining madaniy merosi. Qashg'ar: Ilmiy Madaniyat nashriyoti.
5. Islomov, Sh. (2014). O'zbek kiyim-kechak madaniyati tarixi. Toshkent: San'at nashriyoti.
6. Karimov, A. (2007). O'zbek xalqining milliy liboslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

7. Milliy ansambl to'plamlari – O'zbekiston san'at akademiyasi (2021). Milliy liboslar katalogi. Toshkent.
8. Nurmuhemmet, M. (2010). Uyghur Traditional Dress and its Cultural Significance. Urumqi: Xinjiang University Press.
9. Rashidova, G. (2024). Scientific ethics and etiquette of uzbek students in writing. *Проблемы инновационного и интегративного развития иностранных языков в многоязычной среде*, 416-420.